

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETINING QARSHI IRRIGATSIYA VA
AGROTEKNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**“Geodeziya va geoinformatika sohasini rivojlanish istiqbollari: muammolar va
yechimlar”**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

DASTURI

19-20-aprel



Qarshi – 2024

18. Adizovna, E. D., & Nematovich, S. J. (2022). ADVANTAGES OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN GROUND MONITORING. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 1-4.
19. Rustamov, M., Bobomirzaev, P., & Fayzimurodov, J. (2022). KUZGI YUMSHOQ BUGDOYNING "JASMINA" NAVI DON HOSILDORLIGIGA EKISH MEYORLARNING TA" SIRI. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 258-263.
20. . Bobomirzaev, P. X. (2017). Influence of sowing dates on wheat growth and development in the south of the republic. *Agro Ilm. Tashkent*, 2, 46.
21. .Bobomirzaev, P., Khalilov, N., & Rakhimov, A. (2017). PHOTOSYNTHETIC ACTIVITY DURUM WHEAT DEPENDING ON TIME AND NORMS OF SEEDING SOUTH UZBEKISTAN. *РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ*, 1, 201718.
22. . Халилов, Н. Х., & Бобомирзаев, П. Х. (2014). Ўзбекистонда буғдой селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш технологияси (Монография). *Самарқанд: Зарафшон нашриёти*.
23. . Халилов, Н. Х., & Бобомирзаев, П. Х. (2009). Кузги буғдойни ўғитлаш ва суғоришнинг илмий асослари. *Монография. Т. Фан*, 130.
24. Озидов, З., Бобомирзаев, П. Х., Мавланов, Л., & Худойназаров, Ж. (2023). ЛАЛМИКОРЛИКНИНГ ТОҒ ОЛДИ МИНТАҚАСИ ШАРОИТИДА ХАНТАЛНИНГ ЎСИШИ, РИВОЖЛАНИШИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ЭКИШ МУДДАТЛАРИ ВА МЕЎЁРЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 571-575.

YAYLOV YERLARINI BAHOLASH MUAMMOLARI

Aliqulova Shahnoza Rustam qizi

"O'zdayyerloyiha" DILI birinchi bosqich

tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yaylov yerlaridan oqilona foydalanish, yaylov yerlarini baholashda hisobga olinadigan omillar, yaylov yerlari maydonini normativ qiymatini aniqlash ko'rsatkichlari yoritilgan.

Kalit so'zlari. Yaylov, degradatsiya, yaylovlarning meliorativ holati, iqlim sharoiti, monitoring, ball boniteti.

Abstract. This article describes the rational use of pasture land, the factors to be taken into account in the assessment of pasture land, and the indicators for determining the normative value of the area of pasture land.

Keywords. Pasture, degradation, reclamation of pastures, climatic conditions, monitoring, score credit.

Аннотация. В данной статье описано рациональное использование пастбищных угодий, факторы, которые необходимо учитывать при оценке пастбищных угодий, а также показатели определения нормативной величины площади пастбищных угодий.

Ключевые слова. Пастбища, деградация, рекультивация пастбищ, климатические условия, мониторинг, балльная оценка.

Kirish. Jahonda masofadan zondlash orqali yaylov yerlaridagi turli omillar ta'sirida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni aniqlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada yaylov yerlarining elektron raqamli klassifikatorini ishlab chiqish va degradatsiyaga uchragan yaylov yerlari raqamli shartli belgilarini yaratish, cho'l yaylov yerlarida o'simliklar bilan qoplanganligi darajasini, o'rtacha hosildorligini aniqlash hamda yaylov yerlari monitoringini yuqori aniqlikda yuritishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Dunyo miqyosida yaylovlar maydoni qariyb 2 mlrd gektar bo'lib, bu ko'rsatkich yer shari quruqlik qismining 26% ini tashkil etadi. Respublikamizdagi yaylovlar maydoni 21 mln 100 ming gektarni tashkil etib, uning asosiy ulushi cho'l yaylovlariga to'g'ri keladi. Hozirda ushbu yaylov yerlarining bir qismi turli darajadagi degradatsiyaga uchragan va holati yomonlashgan. Shu sababli masofadan zondlash orqali yaylov yerlarida kechayotgan jarayonlarni o'rganish, yaylov yerlari mahsuldorligini oshirish va ulardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Xususan [3;1-b], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Mamlakatimizda yaylovlarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash, shuningdek, kavrak yetishtirishni yanada rivojlantirish hamda yaylovlarda resurs tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash" PF-24-son Farmonida muhim strategik vazifalar belgilab berilgan. Shu sababli mamlakatimiz qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishda masofadan zondlash orqali yaylov yerlari monitoringini yuritish usulini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [5;20-b].

Respublikamizda mavjud tabiiy va sug'oriladigan madaniy yaylovlarning holatini o'rganish, nazorat qilish va baholab borish muhim vazifa hisoblanadi.

Yaylovlarning holatini baholashning ahamiyati shundaki, har bir mintaqa yaylovlarida tabiiy va xo'jalik sharoitlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Shuning uchun har bir yaylovning holatini alohida o'rganish, baholash, samarali foydalanish yo'llari va tabiiy noqulaylik sabablarini aniqlash hamda ularga mos ravishda meliorativ chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurdir.

Yaylovlarni baholashda hisobga olinadigan omillar:

1. Yaylovning qaysi mintaqada joylashganligi.
2. Yaylovning umumiy maydoni (ga hisobida) va yaylovdan foydalanish koeffitsienti (yaylovdan amaliy jihatdan foydalanayotgan maydonning umumiy yaylovlarning nisbati).
3. Yaylovlarning chegaralari (o'rmon daraxtlari, tog'lik va adirlar, jarliklar va boshqa belgilar).
4. Chorvachilik fermalaridan yaylovlarga va chorvalarni sug'orish manbaigacha bo'lgan masofa, suv ta'minoti.
5. Iqlim sharoiti (vegetatsiya davrining davomiyligi, yillik o'rtacha harorat, yog'ingarchilik miqdori, shamol tezligi, tuproq namligi).
6. Tuproqning tipi mexanik tarkibi, suv-fizik xossalari, agrokimyoviy xususiyatlari, minerallashtirilganligi, ball boniteti.
7. Relyefi.
8. Daryolar, kanallar, ariqlar, quduqlar va boshqa sug'orish manbalarining mavjudligi va joylashuvi.
9. Yaylovlar tarkibidagi pichanzorlar va yem-xashak yetishtiriladigan yer maydonlari.
10. O'simlik qoplami va ularning ozuqabopligi (o'simliklarning nomi, guruhidagi qaysi o'simlik turi ko'p va kamligi, zaharli o'simliklar alohida ko'rsatiladi) guruhdagi o'tlar turi umumiy o'tlarning 10% dan ko'p bo'lsa, hisobga olinadi.
11. Yaylov o'tlarining hosildorligi.
12. Yaylov o'tlarining chorva mollari tomonidan iste'mollik darajasi (80-85% o'tlar iste'mol qilinganda yuqori sifatli yaylov, 75-80% iste'mol qilinganda yaxshi, 70-75% iste'mol qilinganda o'rtacha va 55-65 % o'tlar iste'mol qilinganda yomon sifatli yaylov hisoblanadi) [8;35-37-b].
13. Yaylov yerining tabiiy ekologik holati [13;26-31-b].

Yaylovlardan foydalanish darajasi yuqorida keltirilgan omillar to'liq o'rganilib chiqqandan keyin yaylovlar 100 ballik shakl bo'yicha baholanadi [8;37-b].

1-jadval

Yaylov yerlarining 100 ballik shakl bo'yicha baholanishi

Yaylovlarning holati		Ozuqa birligi	Ballar
1.	Boy yaylovlar	1000-810	100-81
2.	O'rtacha yaylovlar	800-600	80-61
3.	Nochor yaylovlar	600-410	60-41
4.	O'ta nochor yaylovlar	400-210	40-21
5.	Yaroqsiz yaylov	200-20	20-2

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustda qabul qilingan "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 235-sonli qarori[14;3-4-b]ga asosan, 1 ga qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan va ular quyidagilardan iborat:

- tuproqning sifatini va tabiiy yem-xashak ekin maydonlari (pichanzorlar va yaylovlar)ni baholash ko'rsatkichlari;
- asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari va ko'p yillik daraxtlar tuzilmasi;
- qishloq xo'jaligi ekinlari, ko'p yillik daraxtlar va yem-xashakbop ekin maydonlarining normativ hosildorligi;
- qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ unumdorligi;
- qishloq xo'jaligi ekinlarining asosiy turlari bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hisoblab chiqilgan foyda olishi;
- dehqon bozorlarida sotiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy turlarining o'rtacha yillik narxlari hamda paxta xom ashyosi va boshqoli don ekinlarining o'rtacha xarid narxlari;
- foydaning kapitallashuvi foizi.

Ushbu qonun[14;6-b]ning 31-bandida 1 ga ozuqa ekin maydonlarining normativ mahsuldorligi bug'doy hajmiga qayta hisoblab chiqilgan ozuqa birliklaridagi o'rtacha hosildorligi va normativ qiymatini aniqlash davridan oldingi yildagi o'rtacha xarid narxining hosilasi sifatida aniqlanishi keltirib o'tilgan. 32-bandiga asosan 1 ga ozuqa ekin maydonlarining normativ qiymati haydov yerga o'xshash tarzda aniqlanishi keltirib o'tilgan, bunda ozuqa ekin maydonlarining unumdorligi ular bilan bog'liq bo'lgan balandlik mintaqalarida joylashganligiga qarab foydaning hisoblab chiqilgan miqdori quyidagi:

- cho'l mintaqasida — 3,2 foiz;
- tog'oldi mintaqasida — 4,1 foiz;
- tog' mintaqasida — 7,0 foiz miqdordlarda qabul qilinishi keltirib o'tilgan.

Qarorning [14;7-b] 33-bandida esa yaylovlarning sug'oriladigan mintaqalarga tutashgan uchastkalari sug'oriladigan haydov yerga mos tarzda 0,01 koeffitsientini qo'llangan holda baholanishi, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisida sug'oriladigan haydov yerlar bo'lmagan taqdirda, bunday yerlarning normativ qiymati

shartli ravishda tumanning sug'oriladigan mintaqasi bo'yicha asosiy ekin maydonlarining tuzilmasi qo'llanilgan holda hisoblab chiqilishi keltirib o'tilgan.

Qarorning [14;8-b] 41-bandiga asosan yaylovlarning tiplari va ularning oziqaboplik qimmati geobotanik xaritalardan foydalangan holda aniqlanishi keltirib o'tilgan. Ma'muriy tumanda yaylovlarning bir necha tiplari mavjud bo'lganda bug'doyning ekvivalent hosildorligiga qayta hisoblab chiqilgan ozuqa birliklarida (ozuqa qiymati) ifodalangan ularning o'rtacha mahsuldorligi aniqlanishi belgilab berilgan.

Yaylov yerlarini yaxshilash maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

1) Inson omili ta'sirida yuz beradigan jarayonlarning oldini olish (tabiiy yaylovlarda chorva mollarini tartibsiz boqish, me'yoridan ortiq sonini ko'paytirish va butazorlarni kesish, yerga noto'g'ri ishlov berish va hokazo).

2) Tabiiy yaylov tadbirlarini o'tkazish (tosh va butazorlardan tozalash, qo'shimcha o't urug'larni ekish, tuproqning tabiiy namligini saqlash va hokazo).

3) Madaniy yaylovlar barpo qilish (yer tanlash, yaylov ekinlarini ekish va ularni parvarish qilish).

4) Tabiiy va madaniy yaylovlarni suv bilan ta'minlash.

5) Sug'oriladigan madaniy yaylovlarda irrigatsiya tarmoqlaridan va suvdan samarali foydalanish.

6) Tabiiy va madaniy yaylovlardan samarali foydalanish yo'llarini o'rganish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-son "Ma'muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida qaroriga 3-ilova "Yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqot ishlarini o'tkazish tartibi to'g'risida" nizomi qabul qilindi [1;1-b]. Bundan ko'rinib turibiki, mamlakatimizda yaylov yerlarini rivojlantirish uchun yetarli qonunlar va imkoniyatlar mavjud. Nizomda yaylov o'simliklari bilan qoplanganlik darajasini aniqlash, geobotanik ishlarini tashkil qilish, yaylovlarning tip va guruhlariga chegaralari, maydonlari, hosildorligi yaylovlardan mavsumiy foydalanish hududlari aks ettirilgan xarita tuzish. Buning uchun yaylovlarni yaxshilash va ulardan samarali foydalanish, yaylovlarni boshqarish mexanizmini ishlab chiqish, almashlab ekishda zagon usulini qo'llash, qurg'oqchilikka chidamli yaylov o'simliklarining urug'chiligini tashkil etishning ilmiy-innovatsion jihatlarini takomillashtirish va samarali usullarini ishlab chiqish zarur. Yaylovlar hosildorligi va ozuqa sifati yillar va ba'zida yil mavsumlari bo'ylab ham keskin o'zgarib turadi [2;12-b]. Masalan, yaylovlardagi ozuqa miqdori qish mavsumiga kelib 2,5 marotaba kamayadi. Ozuqa tarkibidagi protein miqdori 15% dan 5% gacha, oqsil miqdori esa 15% dan 4% gacha kamayib ketadi. 100 kg yaylov ozuqasi tarkibida bahorda 70-80 ozuqa birligi mavjud bo'lsa, qish mavsumida bu ko'rsatkich 17-18 % dan ortmaydi [6;23-b].

Respublikamizda 21,1 mln gektar yaylovlar (46,5%) mavjud, so'ngi 35-40 yil davomida yaylov o'simliklari soni va hajmi kamayib, degradatsiyaga uchragan maydonlar ko'paygan. Respublikamizda tog', tog'oldi va cho'l yaylovlari tuproqlarning hozirgi holatini aniqlash, degradatsiya jarayonlarini oldini olish, mahsuldorligini oshirish, yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish" [11;17-b] muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu sababli

respublikamiz qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishda mavjud yaylovlarda geobotanik tadqiqotlar o'tkazish, ularning holatini baholash va salbiy jarayonlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [12;4-b].

Yaylovlar umummilliy boylik bo'lib, davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Yaylovlar cho'ldagi, yarim cho'ldagi, tog' oldidagi, tog'dagi va tekislikdagi, suv bilan ta'minlangan hamda suv bilan ta'minlanmagan yaylovlarga ajratiladi. Tog'dagi yaylovlar mavsumiy bo'lib, ulardan yilning faqat muayyan vaqtida foydalaniladi [7;292-b]. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining "Yaylovlar to'g'risida"gi qonuniga asosan yaylov yerlaridan foydalanish huquqi tizimida ham ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, qonunning 4-moddasida yaylovlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari keltirib o'tilgan [4;1-b]. 8-moddada esa O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining yaylovlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari keltirib o'tilgan va ular quyidagilardan iborat:

- yaylovlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;
- yaylovlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;
- yaylovlarning holatini yaxshilash, ulardan foydalanishni prognoz qilish va istiqbolli rejalashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
- yaylovlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- yaylovlarni inventarizatsiyadan o'tkazadi;
- yaylovlarni geobotanik jihatdan tekshirishni amalga oshiradi;
- yaylovlarning monitoringini yuritadi [4;2-3-b].

Qonunning 11-12-moddasiga asosan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolarning hamda yaylovlardan foydalanuvchilar birlashmalari yaylovlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishdagi ishtiroki keltirib o'tilgan [4;3-b]. Ushbu qonunning 18-moddasiga asosan yaylovlardan foydalanganlik uchun haq yer solig'i yoki ijara haqi tarzida undirilishi ta'kidlangan. 23-modda "Yaylovlarni inventarizatsiyadan o'tkazish" haqida keltirib o'tilgan va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Yaylovlarni inventarizatsiyadan o'tkazish yaylovlar holatining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini aniqlashga hamda kartografik va boshqa materiallarda yaylovlarning holatini tasvirlashga (aks ettirishga) doir ishlar majmuidan iboratdir.

Inventarizatsiya jarayonida sifat holati yaxshilanishi talab etiladigan va foydalanish uchun yaroqsiz bo'lgan tanazzulga uchragan yaylov uchastkalari, shuningdek suv bilan ta'minlanmagan yaylovlar aniqlanadi.

Yaylovlarni inventarizatsiyadan o'tkazish materiallaridan yaylovlarda pichan o'rish va chorva mollarini o'tlatish normalari hamda muddatlarini belgilash uchun foydalaniladi.

Ushbu qonunning 25-moddasida esa yaylovlarda monitoring o'tkazish tartibi belgilab berilgan [4;7-b].

Tabiiy yaylovlar o'simliklarining monitoringi – tabiiy yaylovlar to'g'risidagi miqdoriy va sifatga doir ma'lumotlar haqida axborot to'plash, ularning holatini baholash va prognoz qilish, salbiy jarayonlarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida tabiiy yaylovlar o'simliklarining holati, tabiiy yaylovlardan foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar yuzasidan kuzatuvlar tizimi hisoblanadi [9;6-b].

“Tabiiy yaylovlar o‘simliklarining monitoringi” [9;6-b]da: “Yovvoyi holda o‘sovchi yaylov o‘simliklari tabiiy yaylovlar monitoringi kuzatishlarining obyektlari hisoblanadi va ular ustidan kuzatishlar monitoring punktlarida, shuningdek, o‘simlik dunyosi obyektlari davlat kadastrini yuritish doirasida o‘tkaziladi” deb belgilab qo‘yilgan.

Ushbu qo‘llanmaga [9;35-b] muvofiq, tadqiqotlar jarayonida monitoring punktlari soni va ular joylashgan joy, monitoring o‘tkazish bo‘yicha ishlar usullari (dala tadqiqotlari metodikasi), kuzatishlar parametrlari ro‘yxati va davriyligi, shuningdek, ularni o‘tkazish muddatlari, monitoring obyektlari to‘liq o‘rganiladi [5;21-b].

“Yaylovlar to‘g‘risida”gi qonunning 26-moddasida [4;7-b] yuridik va jismoniy shaxslar yaylovlarni ifloslantirganlik, ulardan oqilona foydalanmaganlik, ularning tanazzulga uchraganligi va yaylovlar to‘g‘risidagi qonunchilikni boshqacha tarzda buzganlik natijasida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashi shart ekanligi belgilangan. Ushbu zararning miqdorini to‘g‘ri va aniq hisoblash uchun yaylovning aniq bahosi kerak bo‘ladi.

O‘simlik qoplamining tarkibi va tuzilishini baholash, uning yashash muhiti sharoitlari bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, yem-hashak sifati zahiralarini, yer tuzishda yem-hashak yer turlarining xo‘jalik holatini baholash uchun geobotanik tadqiqotlar olib boriladi. Geobotanika tadqiqotlari materiallari tabiiy yem-hashak yer turlarining sifat ko‘rsatkichlari va ulardan oqilona foydalanish va yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu materiallar pichanzorlar va yaylovlar hududini tartibga solish, poda va otarlar uchastkalarini, navbatlab boqish uchun dalalarni joylashtirishda, yaylovlarni har xil turdagi chorva mollariga biriktirishda ishlatiladi [10;60-61-b].

Tabiiy pichanzor va yaylovlarni yaxshilash chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlashning eng katta zaxirasi, qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa. Ushbu muammolarni oldini olish va bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalarni keltirishimiz mumkin:

- 1) Yaylov yerlarining monitoringini muntazam olib borish.
- 2) Yaylov yerlaridan foydalanuvchilar chegaralarini belgilash.
- 3) Tabiiy chegaralarning butunligi va ulardagi o‘zgarishlarni muntazam kuzatib borish.
- 4) Yaylov yerlarini baholashda geoaxborot ma’lumotlari va uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish.
- 5) Yaylov yerlarida har 5 yilda bir marotaba geobotanik tadqiqotlar o‘tkazish va olingan ma’lumotlarning solishtirma tahlilini o‘tkazish.
- 6) Yaylovlarning bahosini yaylovlarning holatiga berilgan ballar asosida taqaballashtirilgan ko‘rinishda belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-son “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ” to‘g‘risida qaroriga 3-ilova “Yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqot ishlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” nizomi

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi 689-son “Yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishda eng ko‘p qo‘yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta’minlash va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023 yildagi PF-24-son "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 20-may. O'RQ-538-son "Yaylovlar to'g'risida"gi qonuni.
5. O.O'. Davronov. "Tabiiy yaylovlar o'simliklarining monitoringini yuritish va uning ahamiyati". "O'zbekiston zamini" jurnali. 3-son. 2023-y.
6. T.G.Yuldasheva. "Yaylov yerlarining hisobini yuritish va yaylov yerlarini degradatsiyaga uchrash sabablari". Central Asian academic journal of scientific research. 2022-y.
7. F.Sh.Xudoyberdiyev, I.H.Nazarov, M.F.Mirzomurotov. "Yaylov yerlaridan samaralari foydalanish tizimini takomillashtirish". So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 7-jild 1-son. 2024-y.
8. U.Norqulov, H.Sheraliyev. "Yaylovlar melioratsiyasi". «Yangi asr avlodi», 2010-yil.
9. G'.T.Parpiev, Q.M.Hojiev, M.N.Norqulov, O.O'.Davronov, I.L.Akramov, X.K.Bag'bekov, B.B.Xakimov, K.M.Xaitova. Tabiiy yaylovlar o'simliklarining monitoringini yuritish ishlarini amalga oshirish bo'yicha qo'llanma. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. -Toshkent: "Turon-Iqbol" nashriyoti, 2022-y. 35-b.
10. A.M.Muqumov. Yer tuzish asoslari. Darslik Prof. S.Avezboyev rahbarligida tayyorlangan, Toshkent, "TIQXMMI"MTU, 2023-y, 173-b.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni.
12. M.I.Ruzmetov, R.A.Turayev, O.O'.Davronov, M.N.Norqulov, I.L.Akramov, B.B.Xakimov, X.K.Bag'bekov, K.M.Xaitova. O'zbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2022-y. 156-b.
13. G'.T.Parpiyev, K.M.Xaitova. Tog'oldi yaylovlaridan samarali foydalanishni tashkil etish. Ilmiy-uslubiy tavsiyanoma. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti. Toshkent-2023-y, 45-b.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustda qabul qilingan "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 235-sonli qarori